

KORXONALARNI BOSHQARISHDA JARAYONLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

“Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti” kafedrasida katta o'qituvchisi

Muxammadiyev Nodirbek Ikromjon o'g'li

57-19 MT guruh talabasi

Annotatsiya. Maqolada korxonada iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar, barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kundagi o'zining natijalari to'g'risida.

Kalit so'z: real sektor, tarmoq barqarorligi, modernizatsiya modeli, xususiy sektor, samaradorlik, nisbiy ko'rsatgich.

Аннотация. В статье реализация глубоких структурных преобразований в экономике предприятия, обеспечивающих рост доходов населения, усиление эффективных внешнеторговых и инвестиционных процессов, реформа сельского хозяйства, устойчивое развитие малого бизнеса и частного предпринимательства, укрепление банковской и значительные достижения финансовой системы, проведенные реформы в формировании стабильной и эффективной экономики, об их результатах сегодня.

Ключевые слова: реальный сектор, устойчивость сети, модель модернизации, частный сектор, эффективность, относительный показатель.

Abstract. In the article, the implementation of deep structural changes in the economy of the enterprise, ensuring the growth of the population's income,

strengthening of effective foreign trade and investment processes, agricultural reform, sustainable development of small business and private entrepreneurship, and strengthening the banking and financial system are discussed in the article. significant achievements, the reforms being implemented in the formation of a stable and efficient economy, about their results today.

Key words: real sector, network stability, modernization model, private sector, efficiency, relative indicator.

O‘zbekistonda qabul qilingan o‘ziga xos islohot va modernizatsiya modelida islohotlarning izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, davlatning bosh islohotchi sifatida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, mamlakatimizda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi hamda real sektor korxonalar va tarmoqlarining barqarorligini ta’minlashga yerishildi.

Mamlakatimiz real sektor korxonalar va tarmoqlarining rivojlanishi, ularni boshqarishda korporativ yondashuvning shakllanishi, boshqarishga yangicha uslublarni kirib kelishi rivojlanmoqda. Korporativ korxonalarini boshqarishda iqtisodiy xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlikka erishi bugungi kunda dolzarb masala bo‘lmoqda. Iqtisodiy barqarorlikka erishgan korxonalar bu barqarorlikni saqlab qolishga intiladi va korxonalar boshqaruvida iqtisodiy xavfsizlik tizimini tashkil qilishga harakat qiladi. Iqtisodiy xavfsizlik tizimi xaqida so‘z yuritishdan oldin biqz iqtisodiy xavfsizlik o‘zi nima? – degan savolga javob berishimiz kerak.

G‘arbda olimlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlikka quyidagicha ta’riflar berishgan. A. Isaxodjaev va A. Rasulevlarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik bu faqat milliy manfaatlarni himoya qilishdan iborat bo‘lmay, davlat hokimiyati institutlari, ijtimoiy assotsiatsiyalar, xususiy sektorning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining milliy manfaatlarini amalga oshirish va himoya qilish mexanizmini yaratish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlashga tayyorligi va qobiliyatidir¹.

¹ Isaxodjaev A., Rasulev A. Xufyona iqtisodiyoti va iqtisodiy xavfsizlik. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004, 157-bet

Rossiyalik mashhur olim, akademik L. Abalkin «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasining uchta asosiy elementini ajratib ko'rsatgan. Bular: iqtisodiy mustaqillik, milliy iqtisodiyotning barqarorligi, mamlakatning o'z-o'zidan rivojlanish va taraqqiy etishga qodirligi.²

Korxonada miqyosida “Iqtisodiy havfsizlik” deganda – korxonaning ishki va tashqi tasirlarga bardoshlilik, ishlab chiqarish yoki hizmat ko'rsatish faoliyatida barqarorlikni saqlab qolish orqali kuchli raqobatga bardosh berib, bozordagi o'z o'rnini mustahkamlash va kengaytirishdir.

Korxonada (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi – ma'muriyat va personal tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy- iqtisodiy va injener-texnik chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir³.


Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasida chora-tadbirlarni ishlab chiqishda unga ta'sir etuvchi barcha omillarni va birinchi navbatda iqtisodiyotning samaradorligini oshirishni hisobga olish kerak bo'ladi.

Iqtisodiy xavfsizlik tizimida boshqaruvning sifati, samaradorlik ko'rsatkichlari korporativ korxonalarda boshqaruv jarayoniga sarf etiladigan xarajatlar va ularning samaradorligi hamda qaror qabul qilishda maqbul yechimlarni tanlash va bu qarorlarni sifat jihatdan baholash muhimdir. Quyida biz boshqaruv jarayonida samaradorlik haqida to'xtalib o'tamiz.

Birinchi navbatda Menejment iqtisodiy boshqaruv usullariga asoslanib, daromad va foyda olishni ko'zda tutadi. Iqtisodiy boshqaruv usullarini qo'llash orqali eng maqbul qarorlarni qabul qilish mumkin. Menejmentda boshqaruv resurslari va samaradorlikni bog'liqlikda

² Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение.// Вопросы экономики. 1994, №12, с. 45

³Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.



Boshqaruvning samaraliy tashkil etilishi orqali biz axborotlarni tez qabul qilishimiz va qayta ishlab to'g'ri iqtisodiy yoki ijtimoiy ahamiyatga molik qarorlarni qabul qilishimiz mumkin. Qabul qilingan qarorlar esa korxonaning iqtisodiy xavfsizlik tizimiga ta'sir etmay qolmaydi. Boshqaruv samaradorligining asosiy mezn ko'rsatkichi olingan samarani boshqaruv harajatlarig nisbani orqaliy topishimiz mumkin.

$$B_s = S/B_x$$

Bu yerda Bs – boshqaruv samaradorligi;

S – samara

Bx – boshqaruv uchun sarflangan xarajatlar.

Boshqaruv xarajatlari:

- axborot olish va uni qayta ishlash bilan bog`liq xarajatlar;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshi-rish bilan bog`liq xarajatlar;
- ilmiy ishlanmalar, loyihalash, tajriba va seriyali ishlab chiqarishni o`z ichiga oluvni bosqichlar xarajati;
- mahsulotlardan foydalanish xarajatlaridan iboratdir.

Boshqacha qilib aytganda, bunga boshqaruvning barcha (funktsiyalarini) vazifalarini bajarish bilan bog`liq xarajatlar kiradi. Ko`rsatkich - bu biror narsaning rivoji, o`zgarishini bildiruvchi belgi.

Ko`rsatkichlar mutloq va nisbiy ko`rinishda bo`lishi mumkin. Mutloq ko`rsatkichlar aniq sharoitda sodir bo`lgan voqeya va xodisaning miqdorini, qiymatini ifodalaydi. Nisbiy ko`rsatkichlar esa u yoki bu mezonning intensivlik darajasini tavsiflaydi.

Boshqaruv ob`ekti faoliyatini tavsiflash uchun quyidagi samaradorlik mezonlari qo`llaniladi:

*** Umumlashtiruvchi mezonlar:**

Resurslar samaradorligi \longrightarrow max

Xarajatlar samaradorligi \longrightarrow max

*** Xususiy mezonlar:**

- mahsulot ishlab chiqarishga eng kam jonli mehnat sarflash;
- eng kam moddiy resurslar sarflash;
- eng kam moliyaviy resurslar sarflash;

*** Sifat mezonlari:**

- yukori sifatli mahsulot ishlab chiqarish;
- shartnomalarni muddatida bajarish;
- xodimlarning barqarorligi;
- rakobatbardosh texnologiyaga erishish va h. k.

Boshqaruvni to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirishda boshqaruv subyektining ahamiyati yuqoridir.

Boshqarish sub`ekti faoliyatini tavsiflash uchun quyidagi samaradorlik mezonlari qo'llaniladi:

*** Boshqarish tizimidagi moliyaviy xarajatlarni tejash.**

- boshqarish apparati xarajatlarning kamayishi boshqariluvchi tizim samaradorligining iqtisodiy mezoni bo'lishi mumkin. Bu o'rinda boshqarish apparati shtatlarini oqilona qisqartirish, xizmat safarini kamaytirish kabilar tejankorlikning muhim omillari ekanligini ta`kidlash zarur.

- Boshqarish tizimida jonli va buyumlashgan mehnatni tejash.

bu mezon kuchlarni eng ko'p darajada tejash va mehnatdan eng unumli foydalanishni ko'zda tutadi. U sermehnat ishlar va operatsiyalarni qisqartirishda, moddiy va mehnat vositalarini tejashda ifodalanadi. Mehnatni tejashga boshqaruv tarkibi va texnologiyasi jarayonlarini ratsionalizatsiyalash, boshqaruv apparatidagi mehnatni kompyuterlashtirish yo'li bilan erishiladi.

- Ayrim operatsiyalarni bajarishga va butun boshqaruv jarayoniga sarf buladigan vaqt.

- bu mezonda bosh omil - vaqtdir. Axborot to`plash va uni qayta ishlashga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularni amalga oshirishga sarf bo`ladigan vaqtni har tomonlama qisqartirish;

- biznes rejani to`zishga ketadigan vaqtni qisqartirish;
- tezkor topshiriklarni etkazish muddatini tezlashtirish;

- faoliyat natijalarini tezkorlik ila baholash bilan iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashga hal kiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib, boshqaruv samaradorligiga baho berish uchun juda ko'p turli - tuman miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari ko'llanidadi.

Boshqaruv mehnat samaradorligi (bir yil hisobida) quyi-dagicha xisoblanadi:

$$J_{bc} = C_i / B_{xi} : C_o /$$

Bu erda:

J_{bs} - boshqaruv samaradorlik indeksi;

S_o va C_i - bazis va joriy davrlarda erishilgan samara (yalpi yoki mahsuloti);

BX_o va BX_i - bazis va joriy davrlardagi boshqaruv xarajatlari

Xulosa qilib, boshqaruv samaradorligiga baho berish uchun juda ko'p turli - tuman miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Iqtisodiy xavfsizlik tizimining barqaror ishlashida boshqaruv tizimining to'g'ri tashkil etilishi va uning samaradorligini doimo monitoringini olib borish shart. Menejer boshqaruv jarayonini tashkil qiluvchi va samaraliy olib boruvchi boshqaruv subyekti bo'lganligi uchun boshqaruv jarayoniga sarf etilayotgan har bir xarajatni samaraliy sarflanishi ustidan ham nazorat olib borishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isaxodjaev A., Rasulev A. Xufyona iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004, 157-bet
2. Abalkin L. Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: ugrozy i ix otrajenie.// Voprosy ekonomiki. 1994, №12, s. 45
3. Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.